

O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
MARKAZIY BANKI



THE CENTRAL BANK  
OF THE REPUBLIC  
OF UZBEKISTAN

BANK FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISH HUQUQINI BERUVCHI

70 – raqamli

LITSENZIYA

2023 yil "23" sentabr

Toshkent shahri

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2023 yil "23" sentabrdagi 34/8-sonli qaroriga muvofiq

"Octobank" aksiyadorlik jamiyati

(100021, Toshkent shahri, Furqat ko'chasi, 2-uy)

quyidagi moliyaviy operatsiyalar amalga oshirish huquqiga ega:

1. Pul mablag'larini omonatlarga (depozitlarga) jalb etish;
2. To'lovlarни amalga oshirish, shu jumladan bank hisobvaraqlarini ochmasdan amalga oshirish;
3. Jismoniy va yuridik shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan banklarning vakillik hisobvaraqlarini ochish hamda yuritish;
4. Kreditlarni ularning qaytarilishi, foizliligi va muddatliligi sharti bilan o'z nomidan o'zining mablag'lari hamda jalb etilgan mablag'lar hisobidan berish;
5. Chet el valyutasi bilan naqd va naqdsiz shakllardagi operatsiyalar;
6. Jismoniy yoki yuridik shaxs bilan tuzilgan shartnoma bo'yicha mol-mulkni ishonchli boshqarish;
7. Inkassatsiya va kassa xizmatlarini ko'rsatish;
8. Uchinchi shaxslar nomidan ularning majburiyatlari bajarilishini nazarda tutuvchi kafolatlar berish va boshqa majburiatlarni qabul qilish;
9. Uchinchi shaxslardan pul shaklidagi majburiatlarning bajarilishini talab qilish huquqini olish (faktoring);
10. Qimmatli qog'ozlarni chiqarish, xarid qilish, sotish, ularning hisobini yuritish va ularni saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog'ozlarni boshqarish, ular bilan boshqa operatsiyalarni bajarish;
11. Affinlangan qimmatbaho metallar sotib olish va sotish, shu jumladan metallarni mas'ul saqlash hisobvaraqlarini hamda metallarning egasizlantirilgan (jismoniy bo'limgan) hisobvaraqlarini yuritish;
12. Qimmatbaho metallardan yasalgan tangalarni sotib olish va sotish;
13. Hosilaviy moliya vositalari (derivativlar) bilan operatsiyalarni amalga oshirish;
14. Hujjalarni yoki qimmatliklarni saqlash uchun maxsus binolarni yoki ularning ichidagi seyflarni ijara berish;
15. Lizing berish;
16. Qonunchilikda nazarda tutilgan shakllarda qarzlar berish;
17. Moliyaviy operatsiyalar bilan bog'liq maslahat xizmatlari ko'rsatish;
18. Aktivlar majmuuni (portfelini) boshqarish;
19. Elektron pullarni chiqarish, ulardan foydalanish va to'lash;
20. Bank kartalarini berish va to'lovlarga ishlov berish, bank kartalariga boshqa tashkilotlar, jumladan boshqa moliya institutlari bilan birgalikda xizmat ko'rsatish.

**Ushbu litsenziya cheklanmagan muddatga berildi.**

Yuqorida keltirilgan operatsiyalar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'rnatilgan tartib va iqtisodiy me'yorlar asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ushbu litsenziya shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishi hamda O'zbekiston Respublikasi "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi va "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunlarida ko'zda tutilgan hollarda uni bekor qilishi mumkin.

Bank 2001 yil "23" iyunda 70 - raqam ostida Banklarni ro'yxatga olish davlat reyestriga kiritildi(gan).

O'zbekiston Respublikasi  
Markaziy bankining vakolatlilik shaxsiyti

N. Saydullayev



N.

